



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

YOSHLARNING INTERNET VA IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH MADANIYATI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Oblomuradova Xabiba Naimovna

Toshkent davlat yuridik universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Maqolada yoshlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini yoritilgan. Tarmoqli makondagi virtual borliq, axborot oqimlarining inson ongi va qadriyatlar tizimiga ta'siri hamda mazkur jarayonda yoshlarning kognitiv xavfsizligi va axborot gigiyenasini ta'minlash masalalari falsafiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: internet madaniyati, transformatsiya, virtual borliq, ijtimoiy ong, axborot gigiyenasi, mantiqiy fikrlash, tanqidiy tafakkur.

КУЛЬТУРА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРНЕТА И СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ МОЛОДЕЖЬЮ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Обломурадова Хабиба Наимовна

Ташкентский государственный юридический университет, доцент (PhD)

Аннотация

В статье рассматриваются социально-философские аспекты культуры использования молодежью Интернета и социальных сетей. С философской точки зрения анализируются виртуальная реальность в сетевом пространстве, влияние информационных потоков на сознание человека и систему его ценностей, а также вопросы обеспечения когнитивной безопасности и информационной гигиены молодежи в данном процессе.

Ключевые слова: интернет-культура, трансформация, виртуальная реальность, общественное сознание, информационная гигиена, логическое мышление, критическое мышление.

YOUTH CULTURE OF INTERNET AND SOCIAL MEDIA USE: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Oblomuradova Xabiba Naimovna

Tashkent State University of Law, Associate Professor (PhD)

Abstract

The article examines the socio-philosophical aspects of the culture of Internet and social network use among young people. From a philosophical perspective, it analyzes virtual reality in cyberspace, the impact of information flows on human consciousness and value systems, as well as issues related to ensuring the cognitive security and information hygiene of young people in this process.

Keywords: Internet culture, transformation, virtual reality, public consciousness, information hygiene, logical thinking, critical thinking.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida internet va ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib, ayniqsa yoshlar ijtimoiylashuvi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimining shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda yoshlar internetdan nafaqat axborot olish, balki muloqot qilish, ta'lim olish, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish va o'zini namoyon etish vositasi sifatida ham foydalanmoqda.

Globalashuv sharoitida axborot oqimlarining keskin ortishi yoshlarning axborot iste'moli va axborot almashinuvi madaniyatini ilmiy jihatdan o'rganishni taqozo etmoqda. Chunki internet makoni bir tomondan yoshlarning bilim va salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, turli mafkuraviy tahdidlar, manipulyativ axborotlar va virtual qaramlik kabi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Shu bois yoshlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish, ushbu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda axborot madaniyatini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Axborotlashgan jamiyat va raqamli kommunikatsiyalar masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, M. Kastelsning "tarmoqli jamiyat" nazariyasida axborot texnologiyalarining jamiyat tuzilmasiga ta'siri tahlil qilingan. Olimning fikricha, zamonaviy jamiyatda axborot oqimlari iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda [1].

M. Maklyuen tomonidan ilgari surilgan "global qishloq" konsepsiyasi elektron kommunikatsiyalar vositasida insoniyatning yagona axborot makoniga birlashayotganini asoslab beradi [2]. A. Toffler esa axborotlashuvni sivilizatsiya taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida talqin qilib, bilim va axborotning strategik resursga aylanganini ta'kidlaydi [7].

O'zbek olimlarining tadqiqotlarida ham yoshlarning axborot madaniyati, media savodxonligi va internetdan foydalanish ko'nikmalariga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda axborot xavfsizligi, media madaniyat va yoshlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari muhim ilmiy yo'nalish sifatida e'tirof etiladi [5, 6, 8].

Jumladan, I. Saifnazarov, Q. Nazarov, B. To'ychiyev, A. Qodirov, Sh. Madayeva va A. Tulyayevlar axborotlashgan sotsium muammolarini milliy mentalitet evolyutsiyasi, yoshlar ijtimoiylashuvi hamda ma'naviy-mafkuraviy xavfsizlik kontekstida tadqiq etmoqdalar. Biroq raqamli makondagi transformatsiyalarni falsafiy ontologiya darajasida umumlashtirish hamda virtual borliq sharoitida ijtimoiy subyekt ongini muhofaza qiluvchi "axborot gigiyenasi" va "kognitiv xavfsizlik" tushunchalarini ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan chuqurroq tadqiq etish va tizimga solish zarurati dolzarbligicha qolmoqda [3, 4, 9].

Muhokama

Internet va ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy yoshlarning ijtimoiylashuvi uchun yangi kommunikativ muhitni shakllantirmoqda. Ushbu muhitda yoshlar o'zaro muloqot qiladi, axborot almashadi, bilim va tajriba orttiradi hamda ijtimoiy faolligini namoyon etadi. Natijada an'anaviy kommunikatsiya shakllari bilan bir qatorda virtual kommunikatsiya ham ijtimoiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaranganda, internet yoshlar uchun erkin fikrlash, o'zini ifodalash va ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, axborot makonidagi nazoratsiz va cheklanmagan ma'lumotlar oqimi yoshlarning dunyoqarashiga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida yoshlar o'rtasida yangi madaniy amaliyotlar shakllanmoqda. Blog yuritish, kontent yaratish, onlayn hamjamiyatlarda ishtirok etish va ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsiy brend yaratish ana shunday jarayonlar jumlasidandir. Biroq ayrim hollarda virtual muloqotning haddan tashqari kuchayishi real ijtimoiy munosabatlarning zaiflashishiga, raqamli qaramlikka va axborot manipulyatsiyasiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, yoshlarning internetdan foydalanish darajasi ularning media savodxonligi va axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liqdir. Axborotni saralash, manbalar ishonchligini aniqlash va yolg'on ma'lumotlarni farqlash bugungi raqamli jamiyatda muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

Natijalar

Axborotlashgan jamiyatdagi raqamli transformatsiya jarayonlari virtual makonni yoshlar dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy vositaga aylantirgani bois, an'anaviy qadriyatlarning virtuallashuvi va yangi axborot iste'moli madaniyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan kompleks tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayni shu nuqtai nazardan, yoshlarning internetdan foydalanish madaniyati, virtual xulq-atvori va kognitiv xavfsizligini o'rganish maqsadida, ilmiy asoslangan farazlarga tayanilgan holda, Toshkent davlat yuridik universitetining jami 328 nafar talabalari hamda Toshkent shahridagi 300 va 200-sonli umumta'lim maktablarining 100 nafar o'quvchilari (umumiy 428 nafar) o'rtasida tizimli so'rovnoma ishlari muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Tadqiqot ishtirokchilarining yosh kesimidagi taqsimotiga ko'ra, 14–18 yoshdagilar 64,8 %, 18–25 yoshdagilar 22,9 %, 25–30 yoshdagilar esa 12,3 %ni tashkil etdi. Respondentlarning 47,9 %i ayollar, 52,1 %i erkaklardan iborat.

Tadqiqotimizdan o'rin olgan: "Siz asosan internet va ijtimoiy tarmoqlarda qanday mazmundagi kontentni kuzatasiz va undan foydalanasiz?" degan savolga respondentlarning 42 %i "ilmiy-ma'rifiy va ta'limga oid kontentlarni" birinchi o'ringa qo'yishini ta'kidlagan. Shu bilan birga, yoshlarning axborot makonidagi qiziqishlarida ijtimoiy-siyosiy va dunyoviy yangiliklar (24 %), kasbiy mahorat va shaxsiy rivojlanish treninglari (20 %) hamda ko'ngilochar media-vizual materiallar (14 %) kabi yo'nalishlar ham aks etdi. Bu esa yoshlar o'rtasida internetdan pragmatik va intellektual maqsadlarda foydalanish tendensiyasi ustuvor ekanligini ko'rsatsa-da, madaniy-estetik ehtiyojlarning ham raqamli makonga izchil ko'chayotganidan dalolat beradi.

Axborot makoni fenomenologik jihatdan kengayib borar ekan, virtual dunyodagi ma'lumotlar oqimi shaxsning "kognitiv suverenligi", ya'ni mustaqil fikrlash va tashqi axborot bosimidan himoyalaniish qobiliyati masalasini kun tartibiga qo'yadi. Shu munosabat bilan so'rovnomada doirasida respondentlarga: "Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ma'lumotlar Sizning mustaqil fikrlashingiz va dunyoqarashingizga qanday ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaysiz?" degan savol bilan murojaat qilindi. Unga ko'ra, respondentlarning 58,4 %i ijtimoiy tarmoqlar bilim darajasini oshirish va voqelikka tanqidiy baho berishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydi. Savol doirasida respondentlarning 28,6 %i ma'lum ma'noda yaxshi ta'sir qilishini, biroq axborotni saralash qiyin kechishini bildirgan bo'lsa, shaxsiy mulohaza va madaniy o'zlikni anglash kontekstida respondentlarning 64 %i tarmoqdagi kontentlarni shaxs erkinligini ta'minlovchi omil sifatida baholagan. Aksincha, xuddi shu yo'nalishda respondentlarning 21,3 %i ijtimoiy tarmoqlar ongni manipulyatsiya qilishi va milliy qadriyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqidagi xavotirli munosabatini bayon etgan.

Shuningdek, tadqiqotda respondentlarning 48,2 %i internetning virtual muloqot va global madaniy aloqalarni o'rnatish imkoniyatlarini yuqori baholagan bo'lsa, tarmoqdagi anonimlik va trendlar ta'sirida yoshlarning bo'sh vaqtini maqsadsiz sarflashi holatini salbiy baholovchilar 38,7 %ni tashkil etdi. Bu esa raqamli madaniyatning dixotomik, ya'ni ikkiyoqlama tabiatini ko'rsatib, yoshlar orasida axborotni qabul qilishda qutblilik mavjudligini anglatadi.

Globallashuv sharoitida internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarning umuminsoniy qadriyatlar va jahon madaniyati bilan integratsiyalashuv vositasi sifatidagi roli yoshlar tomonidan keskin qo'llab-quvvatlandi va ularning ulushi 91,5 %ni tashkil etdi. Faqatgina 3,1 % respondent bu holatni madaniy assimilyatsiya xavfi sifatida salbiy baholagan. Shaxsiy hayot va virtuallik chegaralariga to'xtaladigan bo'lsak, respondentlarning 24,8 %i ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlar va hayot tarzini namoyish qilish madaniyatini shaxsning degradatsiyasi va sun'iy imij yaratish vositasi sifatida salbiy baholagan bo'lsa, 61,2 % respondent buni zamonaviy o'z-o'zini namoyish etish va erkinlik aksi sifatida ijobiy qabul qilishini bildirgan. Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muhitidagi yoshlar ma'lum bir "raqamli gigiena" ko'nikmalariga ega bo'lib, salbiy javoblarning o'rtacha ulushi 25 %dan oshmagan. Biroq, ushbu natijalar muayyan bir OTM yoki maktab doirasida olinganligini, axborot madaniyati tizimi uyushmagan yoshlar yoki mehnat migratsiyasidagi yoshlar qatlamida butunlay boshqacha mazmun va ahamiyat kasb etishi mumkinligini ham unutmaslik lozim.

Raqamli axborotning eng muhim xususiyati – ushbu ma'lumotlarning reproduktivligi va axborot iste'molchisining bir vaqtning o'zida kontent yaratuvchisiga aylanishidir. So'rovnoma yoshlarning axborot almashinuvi va tarqatish madaniyatini aniqlash maqsadida: "Siz ijtimoiy tarmoqlardan olgan ma'lumotlaringizni boshqalar bilan baham ko'rasizmi?" degan savol bilan murojaat qilindi. Unga ko'ra, deyarli 62 % respondent ma'lumotlarni faol ulashishini ta'kidlab, buni do'stlarini ogohlantirish hamda qiziqarli va foydali narsalarni yaqinlariga ulashish ijtimoiy burchi ekanligi bilan izohlashgan. Shu bilan birga, respondentlarning 18 %i faqat vaziyatga va axborotning haqqoniyligiga qarab ba'zan ulashishini bildirgan bo'lsa, 11 %i esa har bir shaxs axborotni o'zi mustaqil izlab topishi kerak, degan shaxsiy pozitsiyada turishini namoyish etgan. E'tiborli jihati, respondentlarning 9 %i tarmoqlarda kontent ulashish orqali moddiy yoki ma'naviy rag'bat olish maqsadida ulashishini tan olgan. Bu holat tarmoq marketingi va "e'tibor iqtisodiyoti" texnologiyalari yoshlarning qadriyatlar tizimiga singib borayotganini ko'rsatsa-da, ushbu virtual mexanizmlar ko'pincha axborot-psixologik manipulyatsiyalar uchun zamin yaratishi falsafiy xavf sifatida baholanishi shart.

Tadqiqotda yoshlarning o'zaro qaysi mazmundagi axborotlarni ko'proq almashishi masalasini detallashtirish jarayonida respondentlarning 88 %i o'z pozitsiyasini aniq bildirgan va ularga bir nechta javobni belgilash imkoni berilgan. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 61 %i ta'lim, ilmiy manbalar va kitobxonlikka oid ma'lumotlarni ulashishlarini bildirgan bo'lib, bu holat nafaqat respondentlarning talabalik maqomi, balki raqamli makonda ta'lim kapitalining qadrlanayotgani bilan bog'liqdir. Respondentlarning 38 %i hayotiy foydali maslahatlarni, 30 %i kasbiy ko'nikmalarni hamda 24 %i ijtimoiy-siyosiy yangiliklarni o'zaro almashishini bildirgan. Bu shuni anglatadiki, yoshlar o'rtasidagi axborot almashinuvi pragmatik-sotsiallashtiruvchi xususiyatiga ega bo'lib, ular jamiyat hayotiga konstruktiv moslashishga intilmoqdalar. Shuningdek, respondentlar tomonidan bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etishga oid materiallar (17 %), shaxsiy blog va kundalik hayotga oid kontentlar (10 %) va turli tijoriy reklamalar (6 %) ham tarqatiladigan axborotlar ulushidan joy olgan. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar bugungi o'zbek yoshlari ijtimoiy va madaniy hayotining shunchaki texnik vositasi emas, balki ularning yangicha fikrlash tarzi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy madaniyatini shakllantiruvchi virtual-ekzistensial makonga

aylanib ulgurgan.

Tahlillar natijasida yoshlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatiga xos quyidagi tendensiyalar aniqlandi:

Birinchidan, internet yoshlar uchun asosiy axborot manbalaridan biriga aylangan bo'lib, undan ta'lim olish, kasbiy rivojlanish va muloqot qilish maqsadlarida keng foydalanilmoqda.

Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faolligi va jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Uchinchidan, internet resurslaridan foydalanish yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo'lsa-da, axborot xavfsizligi, kiberxavflar va manipulyativ kontentlar bilan bog'liq muammolar ham saqlanib qolmoqda.

To'rtinchidan, media savodxonlik va axborot madaniyati darajasi yuqori bo'lgan yoshlar internet imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanishi hamda salbiy axborot ta'sirlariga nisbatan barqarorroq ekanligi kuzatilmoqda.

Beshinchidan, raqamli kommunikatsiyalar yoshlar orasida yangi ijtimoiy munosabatlar va madaniy amaliyotlarning shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib, ularning bilim olishi, dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va shaxsiy rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. Raqamli texnologiyalarning keng ommalashuvi yoshlarga axborot olish, muloqot qilish va o'z imkoniyatlarini namoyon etish uchun keng sharoit yaratayotgan bo'lsa-da, axborot makonida uchraydigan turli mafkuraviy tahdidlar, dezinformatsiya va manipulyativ ta'sirlar ularda axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, yoshlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini yuksaltirish faqat axborotdan erkin foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan cheklanib qolmasdan, raqamli muhitda mas'uliyatli xulq-atvor me'yorlarini qaror toptirishni ham taqozo etadi. Bu jarayonda ta'lim tizimida media savodxonlikni rivojlantirish, axborot xavfsizligiga oid bilimlarni mustahkamlash, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini raqamli makonda keng targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, axborot madaniyati yuqori darajada shakllangan yoshlarga global axborot makonida mustaqil fikrlay oladigan, ijtimoiy mas'uliyatli va raqamli jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan shaxs sifatida kamol topadi.

Yuqoridagilar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, global raqamli makonda o'zbek tilidagi ilmiy va falsafiy kontentning cheklanganligi sababli yoshlarning boshqa tillardagi yot g'oyaviy muhitga moslashib ketishining oldini olish maqsadida milliy internet segmentida "Milliy raqamli kontent fondi"ni yaratish. Bunda jahon falsafiy merosi va milliy mutafakkirlar asarlarining elektron bazasini shakllantirish hamda ularni zamonaviy virtual iste'mol bozoriga moslashtirish zarur.

Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlardagi turli virtual destruktiv guruhlar, diniy-ekstremistik oqimlar va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi kontentlarning yoshlar ongiga salbiy psixologik ta'sirini baholash va ularga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish maqsadida doimiy faoliyat yuritadigan "Raqamli kognitiv xavfsizlik markazi"ni tashkil etish. Ushbu markaz tarmoqdagi axborot manipulyatsiyalarini aniqlash va yoshlar o'rtasida "raqamli gigiena" madaniyatini targ'ib qilish bilan shug'ullanishi lozim.

Uchinchidan, ta'lim muassasalarida faqat nazariy bilimlar berish bilan cheklanmay, yoshlarning axborot makonidagi amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus "Fakt-checking laboratoriyalari"ni tashkil etish. Mazkur tizim doirasida yoshlar axborotlarni mantiqiy tahlil qilish, virtual dunyodagi sun'iy trendlarga ko'r-ko'rona ergashmaslik va mustaqil fikrlash san'atini (debat, keys-stadi va simulyatsion o'yinlar orqali) amaliyotda o'zlashtirishlariga keng imkoniyat yaratiladi.

To'rtinchidan, oliy ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqot institutlari qoshida internet madaniyati transformatsiyasini doimiy monitoring qilib boruvchi "Raqamli antropologiya va virtual sotsiologik tadqiqotlar uyushmasi"ni tashkil etish. Bu uyushma yoshlarning virtual "men"i, ularning yashirin qadriyatlar tizimi va destruktiv mafkuraviy ta'sirlarga moslashuv darajasini uzluksiz monitoring qiluvchi, davlatning yoshlarga oid siyosatini ilmiy-prognostik ta'minlovchi konseptual tuzilma sifatida faoliyat yuritadi.

Beshinchidan, virtual makondagi "ijtimoiy kapital" (layklar, trendlar, obunachilar soni) va tijoriy rag'batlar yoshlar qadriyatlarini deformatsiyaga uchratmasligi uchun ijtimoiy tarmoqlarda foydali, ilmiy-intellektual va madaniy kontent yaratuvchi yosh blogerlarni davlat va jamiyat tomonidan grantlar,

stipendiyalar hamda maxsus “Milliy raqamli madaniyat elchisi” maqomi orqali moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – М.: МГУ ВШЭ, 2000. – 608 с.
2. Маклюэн М. Понимание медиа: внешние расширения человека. – М.: Канон-Пресс-Ц, 2003. – 464 с.
3. Nazarov Q. va boshq. Falsafa asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – 380 b.
4. Saifnazarov I. Ma’naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 11.
5. Tadjibaeva D. Obespechenie natsionalnoy bezopasnosti v informatsionnoy sfere // Review of Law Sciences. – 2017. – Vol. 1, No. 1. – Pp. 56–61.
6. Tadjibaeva D. Ensuring National Security in the Information Sphere // Review of Law Sciences. – 2017. – Vol. 1, No. 1. – P. 8.
7. Тоффлер Э. Третья волна. – М.: АСТ, 2010. – 784 с.
8. Tojiboeva D. “Mass Culture” as the Most Dangerous Weapon of Ideological Pressure // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2021. – Vol. 1, No. 11. – Pp. 1106–1111.
9. Tulayev A. Virtual olamning axloqiy muammolari (falsafiy tahlil): PhD diss. avtoreferati. – Toshkent: O‘zMU, 2021. – 50 b.